

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 7 Jild 4  
**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduxamidov Islombek*

O‘ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT  
MUHOJIRLIGI TARIXI ..... 10-18

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ  
УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ..... 19-24

*Индиаминова Шоира Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО  
СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ..... 25-29

*Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA FARG‘ONA VILOYATIDA  
IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH ..... 30-35

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN  
KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) ..... 36-41

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O‘ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH  
JARAYONI ..... 42-46

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ  
РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ ..... 47-54

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO‘RSATKICHINI OSHIRISHNI  
TADQIQ QILISH ..... 55-61

*Mamadaliyev Ulug‘bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI ..... 62-69

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

ТЕМИР YO‘L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI  
BAHOLASH ..... 70-75

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS  
IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI ..... 76-82

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING  
TRANSFORMATSIYALASHUVI ..... 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i> MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI .....	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i> ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ .....	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY MASALALARI .....	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i> O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI .....	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i> SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI .....	117-122
<i>Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich</i> VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i> ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK .....	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI .....	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i> LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA .....	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i> O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i> O'ZBEK FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI .....	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i> RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI .....	155-159
<i>Облоқулова Шахло Асрор қизи</i> ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ .....	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i> "MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i> NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI .....	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i> АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ .....	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромова Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Ақром Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmatatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> FUQAROLIK-HUQUQIY ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	



RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAHSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
---	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
--	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIV TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	376-381
--	---------

Received: 30 June 2024  
Accepted: 5 July 2024  
Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

## ANALYSIS OF THE COMPONENTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR STRUCTURAL MODELS

**Narmuratov Zayniddin Rajabovich**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Teacher of Termiz State University

**Abstract.** This article examines the principles and structural models of phraseological units. If the following structural models of *adjective + noun, conjunction + pronoun + noun, noun + verb + noun, noun + conjunction + noun, noun + verb + verb, pronoun + verb + noun* have been determined in English, which are meaningful for education and science, and in Uzbek, *ot + ot + sifat, ot + ot + ot, ot + sifat + ot, ot + ot+fe'l, fe'l + ot+fe'l, ot + ot+ son, ot + sifat+ fe'l, ot + ot+ son, ot + sifat+ fe'l, sifat+ ot+ fe'l, ot+ fe'l+fe'l* have been determined. At the same time, in English, phraseological units with the components of education and science are formed without morphological means (affixes, adverbs) (*Don't judge a book by its cover*), and in Uzbek, they use different morphological means, or The formation of words by syntactic linking by adding affixes and adverbs (*yerning tagida ilon qimirlasa biladi*) has been studied.

**Key word:** phraseological unit, morphological means, syntactic connection, component analysis.

## FRAZEOLGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI

**Narmuratov Zayniddin Radjabovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada frazeologik birliklarning yasaliş tamoyillari va strukturaviy modellari o'rganilgan. Ingliz tilida *ta'lim* va *ilm* mazmunli frazeologik quyidagi *adjective + noun, conjunction + pronoun + noun, noun + verb + noun, noun + conjunction + noun, noun + verb + verb, pronoun + verb + noun* strukturaviy modellari aniqlangan bo'lsa, o'zbek tilida esa *ot + ot + sifat, ot + ot + ot, ot + sifat + ot, ot + ot+fe'l, fe'l + ot+fe'l, ot + ot+ son, ot + sifat+ fe'l, ot + ot+ son, ot + sifat+ fe'l, sifat+ ot+ fe'l, ot+ fe'l+fe'l* kabi strukturaviy modellari aniqlangan. Shu bilan birga ingliz tilida **ta'lim** va **ilm** komponentli frazeologik birliklar morfologik vositalar (affiksalar, qo'shimchalar)siz (*Don't judge a book by its cover*) hosil bo'lsa, o'zbek tilida esa turli morfologik vositalarni, ya'ni affiks va qo'shimchalarni (*yerning tagida ilon qimirlasa biladi*) qo'shish orqali so'zlarni sintaktik bog'lanishi orqali hosil bo'lishi tadqiq etilgan.

**Kalit so'z:** frazeologik birlik, morfologik vositalar, sintaktik bog'lanish, komponent tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N31>

**Kirish.** Frazeologiyani asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini

oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida soʻzlarning yangi maʼnolari hosil boʻlishini oʻrganish va boshqa frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni oʻrganish, tasniflash va lugʻatlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan oʻziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur-semantik, grammatik vazifaviy-uslubiy asoslarga koʻra tasnif etiladi. Struktur-semantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ayrim tadqiqotchi olimlar FBlarning strukturasi komponentning muayyan morfologik xususiyati tomonidan tadqiq etganlar va FBlarni otli, feʼlli, ravishli frazeologizmlarga ajratib oʻrganganlar. Ye.V. Arsenteva ham feʼlli FBlarni tahlil qiladi va ularni rus va ingliz tillaridagi sodda va murakkab soʻz birikmasi kabi oʻz strukturasi ega boʻlishini taʼkidlaydi [5].

G.X. Aliyeva substantiv, feʼlli va sifatli frazeologizmlarni tahlil qiladi va ularning yasalishidagi bir qancha oʻxshash sifatlarni izohlab beradi [3]. Lekin bu ishlardazonimik komponentga ega boʻlgan frazeologik birliklar alohida tahlil qilinmagan. Ingliz va turk tillaridagi feʼlli FBlarning strukturaviy xususiyatlari [4], hamda ingliz va tatar tillaridagi «ozuq-ovqat» maʼnosida kelgan adyektiv, substantiv va feʼlli frazeologizmlar [7] ham qiyoslangan.

Ushbu tadqiqotlarning natijalariga koʻra frazeologizmlarning strukturasi yuzasidan bir qancha umumiy fikrlar aytilganini hamda ular frazeologizmlarning bir qancha tillardagi turlicha strukturaviy xususiyatlari izohlab berilganligini taʼkidlab oʻtishimiz mumkin. Turli tillarda frazeologizmlarni qiyoslash metodi va tamoyillari unchalik ustuvor emas, lekin har ikki qiyoslanayotgan tillarda bir til birligini yoki hodisasini mikrosistema sifatida olib, uning tahlilida bir xil metodga asoslanib ish tutiladi.

Bir turdagi frazeologizmlarni qiyosiy oʻrganishda tillararo mutanosiblik yoki toʻgʻri keluvchi holatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega boʻladi.

**Muhokama.** Ikki tildagi frazeologizmlar doim ham bir-biriga toʻgʻri kelmaydi. Masalan ingliz tilida *Dog my cats!* iborasi oʻzbek tilida *Xudo haqqi!* deb beriladi, yaʼni etalon tildagi inglizcha turgʻun iborani oʻzbek tiliga tarjima qilish mumkin emas. Shu sababli uning muqobili topiladi va bu ingliz tilidagiga butunlay oʻxshamaydi. Bu frazeologizmlarning komponentlari va strukturasi farqlanadi, lekin ular shartli boʻlsa ham, semantik jihatdan yaqin maʼnodagi muqobil frazeologizmlar hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning verb+complement (feʼl+izohlovchi); adjective+noun (sifat+ot) kabi shakllari mavjud boʻlib, ularning maʼnosi tashkil etgan komponentlarining umumiy yigʻindisidan kelib chiqadi va bu kontekstda aniqlanadi.

Feʼlli frazeologik birliklar koʻpincha passiv konstruksiyada beriladi va bu xususiyat ularning grammatik tabiatini ifodalaydi: *the chips were said to be down; the far was alleged to be flying; the jig is thought to be up.*

Frazeologik birliklarning yana bir oʻziga xos xususiyati ularning tuzilishi goʻyo oddiy erkin soʻz birikmalariga oʻxshasa ham, strukturasi turgʻun boʻlib, boshqa turli birikmalar bilan bogʻlanmaydi va soʻz tartibining oʻzgarishiga yoʻl qoʻymaydi[7].

Frazeologizmlarning strukturasi, komponentlari tartibi, shakli bilan bogʻliq boʻlgan yana bir qancha muammolar bor. Bu oʻrinda ingliz tilidagi taʼlim va ilm komponentli frazeologik birliklar nazarda tutilmoqda. Biz TIMFBlarning komponentlari tartibi, va strukturaviy modellarini oʻrganishda yuqoridagi umumiy usullardan foydalanamiz. Dastlab

TIMFBlarning komponentlari tartibini o'rganib chiqamiz va ularning har birini qanday strukturaviy modellar orqali birikishini aniqlaymiz. Ushbu muammoni hal etish uchun quyidagi tahlil o'tkazildi.

Ikki komponentli TIMFBlar ingliz tilida katta guruhni tashkil etadi. TIMFBlar 300 tani tashkil etadilar. TIMFBlar soni xususida keltirilgan bu ma'lumotlar lug'at, va asarlarni ko'rib chiqish natijasida hosil bo'lgan. Biroq, ularning soni yanada ko'proq bo'lishi mumkin, chunki til doimiy rivojlanishda va boyishda davom etadi.

Tahlilga tortilgan misollardan kelib chiqqan holda, TIMFBlar quyidagi strukturaviy modellarga ajratildi:

1. noun + noun strukturaviy modeli bilan quyidagi ta'lim va ilm mazmunli frazeologizmlar yasalgan: *teacher's pet* – o'qituvchining erkatoyi; *cheat sheet* – qoralama; *class clown* iborasi – sho'x o'quvchi; *Knowledge is power* – bilim kuchdir;

2) adjective + noun strukturaviy modeli bo'yicha quyidagi TIMFBlar yasalgan; *an old cat* – tajribali kampir; *old bird* – ko'p narsani biladigan odam; *a clever boy* – ilmi bola; *a smart boy* – zehni bola; *an educated boy* – bilimli bola kabi frazemalarni kiritish mumkin; *A quick learner* – qobilyatli o'quvchi.

Ushbu strukturaviy modelda as-as konstruksiyasi bilan kelgan bir qancha ikki komponentli **TIMFBlar** mavjud: *As far as anyone knows* – kimdir bilib qolguncha.

Ayrim holatlarda komponentlarda gap mazmuniga ko'ra bu birliklardagi bitta as tushib qoladi. Ko'p hollarda iboraning grammatik qurilishini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Masalan: *dumb as a fish* – baliqdek kamgapro

3) ikki komponentli TIMFBlarning quyidagilari verb + noun strukturaviy modeliga ega: *Learn the Ropes* – ipidan-gnasigacha bilmoq; *crack a book* – diqqatga sazovor joylarni ko'rsatmoq; *hit the books* – ko'p o'qimoq.

O'zbek tilida tahlilga tortilgan misollardan kelib chiqqan holda, TIMFBlar quyidagi strukturaviy modellarga ajratildi: ot + fe'l strukturaviy modeli bilan quyidagi ta'lim va ilm mazmunli frazeologizmlar yasalgan: *Aqli yetadi*; *Bilimi yetadi*; *Javob bermoq*; *Savol bermoq*; *Kim biladi*; *Kim bilsin*; *Xudo biladi*.

**Natijalar.** Alohida takidlash joizki, ikki komponentli frazeologik birliklar boshqa turdagi komponentli frazeologik birliklarga nisbatan salmog' jihatdan ustunlik qilmaydi. Buning sababi esa frazeologik birliklar asosan bir necha komponentlardan tashkil topishi bilan izohlanadi.

Ingliz tilida noun + noun, adjective + noun, verb + noun, conjunction + noun, noun + preposition + noun, verb + preposition + noun, verb + preposition strukturaviy modeli asosida yasalgan birliklar aniqlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'zbek tilida asosan noun + verb strukturaviy modeli bilan hoisil bo'lish tahlilga tortilgan misollar asosida aniqlandi.

Qizig'i shundaki, ingliz tilida **ta'lim** va **ilm** komponentli frazeologik birliklar morfologik jihatdan tuzilishida deyarli hech qanday qo'shimcha talab qilmaydi. Ularning semantik tuzilishi ta'limga oid leksema (*Don't judge a book by its cover* kabi) o'zagida o'zgarish bo'lmay, so'z yasovchi va o'zgartiruvchi qo'shimchalarni deyarli talab qilmaydi. Umuman, bu xususiyat boshqa frazeologizmlarga ham xos hisoblanadi [6] Bu o'rinda so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda, ular boshqa ma'noni ifodalashi ko'zga tashlanadi. Ko'pincha frazeologizmlar murakkab turg'un so'z birikmalari shaklida bo'lsa ham, ularning komponentlari ko'pincha turli morfologik vositalar (affikslar, qo'shimchalar)siz hosil bo'ladi. Bu xususiyat ingliz tili morfologik jihatdan flektiv, lekin analitik belgi ko'proq ekanini

ko'rsatadi. TIMFBlarda har bir komponent alohida holda hech qanday morfologik vositasiz bog'lanishi ya'ni amorf tillarga xos xususiyatni esga soladi. Masalan: *Do as I say, not as I do – Mullaning aytganini qil, qilganini emas; Never tell tales out of school – Uydagi gapni ko'chaga chiqarma; No man is born wise or learned – Hech kim ilmli bo'lib tug'ilmagan; Ask no questions and you will be told no lies – Savol berma yolg'on eshitmaysan; to be top banana – eng bilimli, kuchli kishi bo'lmoq* kabilar. Bu xususiyat umuman so'z yasashdagi mahsuldorlik kamayganda, izolirlashish xususiyati xosil bo'lishini ko'rsatadi [9].

O'zbek tilida TIMFBlarning strukturasi komponentlariga turli morfologik vositalarni, ya'ni affiks va qo'shimchalarni qo'shish orqali so'zlarni sintaktik bog'lanishi ko'proq uchraydi. Bu xususiyat o'zbek tilida agglyutinatsiya natijasida, ya'ni so'zga 6-7 tagacha turli qo'shimcha va affikslarni ulash yordamida birikmalarni sintaktik va semantik jihatdan bog'lashga imkon beradi [1]. Masalan, *Biror narsa(kishi)ni besh barmoqday bilmoq - barmoq+day; besh qo'lday bilmoq - qo'l+day; Nima qilarini bilmay qolmoq- bil+ma+y; Qornini yorsang, alif chiqmaydi – Qorni+ni; ikki yor-ti bir butun- yor+ti; yerning tagida ilon qimirlasa biladi- yer+ning; bilimini mukammal qilmoq- bilim+i+ni; a'lo baho olmoq- ol+moq; ko'p o'qiydigan- o'qiy+di+gan; biror narsani yaxshi bilmoq- bil+moq; aql chirog'i- chirog'+i* kabi frazemalarni keltirish mumkin.

**Xulosa.** Ingliz tilida bu xususiyat ma'lum darajada bor, lekin faqat so'zning o'ziga xos bo'lib boshqa so'z bilan bog'lanishda predloglar yordam beradi: *There are no flies on him – uni aldash juda mushkul; to be up with the lark – erta saxarda uyg'onmoq* kabilar. Tillardagi morfologik universaliyaga ko'ra, agar tilda predlog bo'lsa, qo'shimchalar kam qo'llaniladi, aksincha predlog bo'lmasa, qo'shimchalar ko'p qo'llaniladi [4]. Bu universalিয়া frazeologizmlarning tarkibidagi komponentlarini bir-biriga bog'lashda ham kuzatiladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: oliy o'quv yurtlarining fil. fak. talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.
2. Ашурова Д.У., Галиева М.Р. Cognitive Linguistics. Когнитив лингвистика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – 107 p.
3. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц. Ташкент: «Фан» Академии наук Республики Узбекистан, 2006. – 298 с.
4. Gafurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini. – Toshkent: Mekhrdiyov, 2008. – 238 b.
5. Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т.: Фан, 1991. – 276 б.
6. Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград, Изд-во ЛГУ, 1963. – 227 с.
7. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 254 с.
8. Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц. – Казан: Изд-во Казанского университета, 1989. – 123 с.
9. Cowie A. P. In *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. – Oxford: Published in the United States by Oxford University Press, 1998. – 130 p.
10. Meider W. *A Handbook*. – London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.
11. Mieder V. *Twisted Wisdom, Modern Anti Proverbs*. – Burlington: The University of Vermont, 1998. – 396 p.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 7 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).